
Farg'ona shahar hokimligining bildirishi

Farg'ona shahar hokimligi shahar prokuraturasi, soliq, ichki ishlar idoralari xodimlari va jamoatchilik bilan hamkorlikda karantin vaqtida dori vositalari, bozorlarda, do'konlarda aholining asosiy iste'mol tovarlari narxi oshib ketmasligi uchun muntazam targ'ibot va tushuntirish ishlari olib borilmoqda.

25 mart kuni "Sevimli" telekanalining "Zamon" informatsion dasturida Farg'ona shahar dehqon va ulgurji bozorida narx-navolar bo'yicha lavha e'farga uzatildi.

Lavhada bozorda sotilayotgan kartoshka narxining 3500 so'mdan 4000 so'mgacha sotilayotgani ta'kidlangan bo'lsada, holat faqat bir tomonlama yoritilgan.

Bozor ma'muriyati va hokimlik va boshqa tegishli davlat organlari sa'y-harakatlari bilan yarmarka tashkil etilgani, unda aholiga faqat 3500 ming so'mdan kartoshka sotilayotganiga e'tibor qaratilmagan.

Bozorda nafaqat kartoshka, balki boshqa asosiy iste'mol mahsulotlarining ham yarmarkasi tashkil etilib, aholiga hamyonbop narxlarda sotuvi tashkil etilganini bildiramiz.

Eng muhimi, 1 haftadan buyon mahsulotlarning narxi bir xil tarzda sotilishi, oshib ketmasligini oldini olish qat'iy nazoratga olingan.

Qayd etish lozimki, aholiga zarur mahsulotlarning zaxirasi yetarli bo'lib, turli holatlarga yo'l qo'yilmaydi.

Shuningdek, narx-navo bo'yicha hamma qattiq ogohlantirilib, asossiz oshirmoqchi bo'lganlar jinoiy javobgarlikka tortilishi tushuntirildi.

2020-03-26 20:28:12